

ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING MUHIM JIHLTLARI

Ixtiyorjonova Gulafshon Bunyodjonovna

*Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti tojik tili yo'nalishi 3-bosqich talabasi
ixtiyorjonovag@gmail.com*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ona tili va adabiyot darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashning nazariy va amaliy jihatlari keng yoritilgan. Xususan, ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlar, interfaol metodlar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish orqali o'quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtirish masalalari tahlil qilingan. Maqolada ona tili va adabiyot fanlarini o'qitishda kreativ yondashuvlar, mustaqil fikrlashni rivojlantirish, o'quvchilarning nutqiy va ijodiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi metodlar haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning dars samaradorligini oshirishdagi o'rni, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashdagi ahamiyati ham asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari ona tili va adabiyot darslarini yanada qiziqarli, mazmunli va samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so'zlar: *Ona tili, adabiyot, dars, pedagogik texnologiya, innovatsion texnologiya, interfaol metodlar, ta'lim jarayoni, zamonaviy yondashuv, didaktik usullar, o'quvchi faolligi, ijodkorlik, nutq rivoji, kompetensiya, AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari), samaradorlik.*

«Ona tili va adabiyot» darslariga noan'anaviy darslarni olib kirish va uni ta'lim mazmuniga singdirish, dars o'tishning yangi-yangi usullarini topish Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi. «Ona tili va adabiyot» darslariga noan'anaviy darslarni olib kirish va uni ta'lim mazmuniga singdirish, dars o'tishning yangi-yangi usullarini topish Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi. Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o'sib kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini uyg'otishda, milliy tilga, o'z xalqining an'analariga iftixor hissini kamol toptirishda «Ona tili va adabiyot» darslarining o'rni beqiyosdir. Shuningdek, hozirgi davrda XXI asr pedagogidan nafaqat nazariy bilim balki shu bor bilimni o'quvchilar ongiga samaraliroq usullar orqali yetkazish, berilgan bilimning oson, puxta va tez o'zlashtirilishiga zamin yaratish, o'quvchilar ongida mantiqiy fikrlash, ijodkorlik va ravonlikni shakllantirish ham talab etilmoqda.

Yana bir e'tiborga olinishi lozim bolgan jihat bu ona tili va adabiyot darslari davomida kompyuter texnologiyalardan foydalanishdir. Buning uchun birinchi navbatda o'qituvchi sinfxonani kerakli jihozlar bilan ta'minlanishini tashkil etishi, so'ngra mavzuga doir taqdimotlar, videolar, qisqa filmlar, rasmlar va ijod namunalari yaratishi yoki internet saytlaridan sifatlarini tanlab yuklab olishi lozim. Buning asosiy sababi, ular o'quvchilarning ijodkorligini va dunyoqarashini kengaytirishga, visual

o'rganishni rivojlantirishga va albatta o'quv jarayonining qiziqarliroq va sifatliroq tashkil etilishiga yordam beradi. Bu usul Grammatik jihatdan murakkab mavzularning oson tushunilishiga, rasmlar orqali o'quvchilarning mustaqil oddiy gapdan to kichik matn tuza olish qobiliyatini o'stirishga, adabiyot namoyondalari hayoti va ijodini ko'z oldida gavdalantirish va yaxshiroq yodda saqlashga, ularning ijod namunalaridan ekran orqali bahramand bo'lishga yordam berishi bilan alohida xarakterlanadi. Ayniqsa hozirgi butun dunyoga tarqalishga ulgurgan COVID -19 pandemiyasi sharoitidan kelib chiqilsa, o'qituvchida yana bir imkoniyat bu audio va video darslarning masofaviy ta'lim uchun yaratilishi, onlayn ta'lim yurtimiz ta'lim tizimini qamrab olar ekan, televideniya orqali efirga uzatilayotgan online dars mashg'ulotlari bilan bir qatorda o'quvchilar uchun tanish bo'lgan sevimli ustozlari tomonidan yaratilgan qo'shimcha darslar ularga kuch, motivatsiya va albatta qo'shimcha bilim bera oladi.

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta'limning jahon ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi zamonaviy pedagogik texnologiyalarda yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda. Bu yondashuvlar o'z navbatida o'quv jarayonining tashkiliy va metodik jihatlariga muayyan ijobiy o'zgarishlar olib kirmoqdaki, ularning ko'pchiligi pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat bilan uzviy bog'liq.

Har bir darsni o'ziga xos usul asosida o'tish, o'quvchining fanga bo'lgan qiziqishini oshirish, uning qalbida ilmga muhabbat uyg'otish o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Muallimning mahoratini oshirishga xizmat qiluvchi vositalardan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalardir. Zamonaviy pedagogik texnologiya – hozirgi zamon didaktikasi va pedagogikasi taraqqiyotining mahsuli. Har bir zamonaviy pedagog mavjud pedagogik texnologiyalarni o'z darslarida qo'llasa, albatta ijobiy natijaga erishadi. Bugungi kun o'qituvchisining maqsadi barkamol yoshlarni tarbiyalash, ularga puxta ta'lim-tarbiya berish, zarur axborotlar bilan ta'minlash, mustaqil fikrlashga o'rgatish, bilim va hayotiy ko'nikmalar hosil qilish, ular qalbida vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg'ularini qaror toptirishdan iborat. Bu ezgu maqsadlarni ilg'or pedagogik va innovatsion texnologiyalar asosida o'tilgan mashg'ulotlarda amalga oshirish mumkin.

Innovatsion texnologiya – ta'lim samaradorligini oshiruvchi omillardan foydalanish, turli pedagogik jarayonlarni loyihalash va amalda qo'llash orqali bilim egallashni takomillashtirish usullari. Uning asosiy maqsadi ta'lim jarayonida o'qituvchi va bilim oluvchi faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol usullar ta'lim jarayonida qatnashayotgan har bir bilim oluvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish qiziqarli mashg'ulotga aylanadi. Ko'p yillar davomida an'anaviy dars o'tish ta'limning asosiy shakllaridan biri bo'lib keldi. An'anaviy darsda o'qituvchi faol, o'quvchi esa passiv ishtirokchiga aylanadi. Bu esa o'quvchining mustaqil fikrlashi, izlanuvchanlik qobiliyati rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda bunday darslar yaxshi samara bermaydi. Bugungi davr talabi dars jarayonini noan'anaviy tarzda

mazmunli tashkil etish, o'quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlashni taqozo etadi.

Noan'anaviy darslarni tashkil etishda interfaol metodlar muhim bo'g'in hisoblanadi. Ular o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro faol munosabatlarida tashkil etiladigan mashg'ulot turidir. Bunda o'qituvchi va o'quvchi o'zaro hamkorlikda ishlaydi. Fikrlar to'qnashuvi yuzaga keladi. O'quvchining erkin fikrlash jarayoni yangi pog'onaga ko'tariladi. O'qituvchi shu tarzda o'quvchilarni faollashtiradi, o'zlashtirishi past o'quvchilar dunyoqarashi va tafakkurini boyitib boradi.

Ta'lim uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, uning sifati darsda qo'llanilgan metodlarga bog'liq. Darsning mazmunli o'tishi, unda qanday metodlardan foydalanilgani va natijaga erishilgani o'qituvchining mahorati, bilim darajasini belgilaydi. Darsda metodlar to'g'ri tanlansa, maqsadga tez va oson erishiladi. Interfaol metodlarni tanlash har bir darsning didaktik maqsadidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Bu esa o'qituvchidan har doim bir xil usulda emas, dars mavzusiga mos metodlar asosida dars o'tishni talab etadi. Buning uchun o'qituvchi doimo o'z ustidaishlashi, bilim va kasbiy malakasini oshirib borishi, ilm-fan yangiliklaridan xabardor bo'lishi va o'z faoliyatida ulardan samarali foydalanishi lozim. O'qituvchi bir vaqtning o'zida ijodkor, aktyor va fan bilimdoni bo'lsa, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda darsning mazmuni, o'quvchilarga yetkazish usul va shakllari, vositalarini oldindan belgilab, mavzuga mos metodni tanlasagina dars samaradorligi yuqori bo'ladi.

Bugungi shiddat bilan jadallashib borayotgan taraqqiyot davrida dunyo har daqiqada o'zgarimoqda, avlodlar. o'zgarimoqda va o'sib kelayotgan avlodning fikrlashi, dunyoqarashi turlicha va bu jarayon bugungi ta'lim tizimida o'qituvchining tinimsiz izlanishga, yangidan yangi g'oyalarni qo'llashga, ta'limda innovatsion texnologiyalardan, AKTdan foydalanish zaruratini tobora orttirmoqda

Ma'lumki, «Adabiyot» darslariga noan'anaviy darslarni olib kirish va uni ta'lim mazmuniga singdirish, dars o'tishning yangi-yangi usullarini topish Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi. Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o'sib kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini uyg'otishda, milliy tilga, o'z xalqining an'alariga iftixor hissini kamol toptirishda «Adabiyot» darslarining o'rni beqiyosdir. Shunday ekan, biz ham o'z darslarimizni tashkil etishda aynan shu maqsadlarni ko'zlagan holda ish olib boramiz. Keyingi paytlarda ilg'or tajribali o'qituvchilar tamonidan darsning seminar -dars, bahs -dars, suhbat - dars, sinov - dars, konferensiya - dars, sayohat-dars kabi turlari o'tkazilmoqda. Bunday dars turlari o'quvchining dars paytidagi loqaydligiga barham berib, unda faollikni uyg'otadi, bolani o'ylashga, muhokamali fikr yuritishga, so'zlashga va izlanishga hamda mehnat qilishga o'rgatadi.

Buning uchun hamma vaqt o'qituvchi, o'z o'quvchilariga nisbatan ko'proq shug'ullanib, bilim va mahoratini tinmay oshirib borishi zarur. Shundagina u o'z nomiga munosib faoliyat kishisi bo'ladi. Mehnatning samarasi sifatida har bir darsi mazmunli, maroqli orginalligi bilan farqli ekanligini, uning mashg'ulotlariga o'quvchilar tabora qiziqib borayotganliklarini, shogirdlarining dars jarayonida o'quv materiallarini, o'zaro

ishtiyoq bilan o'rganishga kirishib faollik va uyushqoqlik ko'rsatayotganliklarini qalbdan his etadi. Bunday natijaga, shubhasiz dars jarayonida oqitish usullaridan har tomonlama foydalanish orqali erishish mumkin.

Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslangan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Bugungi kunimiz nihoyatda shiddatkor. U har bir o'qituvchidan o'z ishiga ijodiy yondashishni, ta'limning yangi shakllaridan foydalangan holda dars samaradorligini oshirishni talab qilmoqda. Ayniqsa, adabiyot darslarida o'quvchi o'zligini anglasa, o'zini va o'zgalarni tushuna olsa, o'qituvchi o'zining kamchiliklarini ko'ra olsa va ularni to'g'rilashda g'ayratli bo'lsagina, dars kashfiyot darajasiga etadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, ta'lim mazmunini boyitishga oid ishlarni muntazam ravishda olib borish lozim. O'quvchilar ma'naviyatini shakllantirishda pedagogik omillarni ham ko'plab topsa bo'ladi. Ular ta'lim mazmunini yangi sifat bosqichiga ko'tarishga mustahkam didaktik asos bo'la oladi va ularni ta'lim mazmuniga ustalik bilan kiritish esa, o'ziga xos innovatsion jarayon bo'lib, bunda o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, ona tili va adabiyot fanining chuqur o'zlashtirilishi zamonaviy pedagog foydalanadigan interfaol metodlar, o'yinlar va computer texnologiyalaridan oqilona foydalanish orqali yanada puxta, oson va tez bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shayxislamov, N. (2020). Ona tili darslarida o'quvchilar nutqini o'stirishning asosiy yo'nalishlari. *Science and Education*, 1(4), 174-179.

2. Shayxislamov, N., & Maxmudov, Q. (2020). Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'rgatishda boshqa fanlar bilan bog'lab o'qitish (integratsiya) dan foydalanish. (11), 111-113.

3. Shayxislamov Z. (2020). Tilshunoslik keng qamrovli fan sifatida. *UzACADEMIA*, 1(1), 156-158.

4. Shayxislamov N. Z. (2020). Zamonaviy tilshunoslik yo'nalishi - pxisolingvistikada o'zbek bolalari nutqining o'rganilishi.